Pirnazar DAVRONOV

MATEMATIKADAN
MISOL VA MASALALAR YECHISH

4-KITOB



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI

Pirnazar DAVRONOV

MATEMATIKADAN
MISOL VA MASALALAR YECHISH

4-KITOB

“QAMAR MEDIA” NASHRIYOTI
TOSHKENT – 2025

UDK 51(076.1)
KBK 22.1я7
P 46

Pirnazar Davronov. Matematikadan misol va masalalar yechish. Metodik qo‘llanma. 4-kitob. – “Qamar media” nashriyoti. Toshkent: 2025-yil, 279 bet.

Taqrizchilar:

T.Ochilov – O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Aniq fanlar” kafedrasi dotsenti;

A.Qudratova – Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi dotsenti;

S**.Jumayev** – Samarqand viloyati Nurobod tumani xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 21- umumiy o‘rta ta’lim maktabi matematika fani o‘qituvchisi.

Mazkur metodik qo‘llanmani yozishdan maqsad, insonlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga ko‘maklashish asosida jamiyat, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishdan iborat. Shu ma’noda maktab matematikasini o‘qib-o‘rganuvchi o‘qituvchilar, ayniqsa repetitorlik qiluvchi hamkasblar, maktabdan keyingi ta’limga tayyorgarlik ko‘ruvchi o‘quvchilar davlat test markazi tomonidan nashr etilgan axborotnomalardagi misol va masalalarni yechishda biror qiyinchlikka duch kelishsa, biz yozgan kitoblarning foydasi tegsa, o‘zimizni qo‘yilgan maqsadimizga erishgan hisoblardik.

ISBN 978-9943-7049-3-0

S O‘ Z B O S H I

Assalomu alaykum muhtaram kitobxon. Sizni muhtaram, - deb atadim. Boisi, Olloh insonni muhtaram va mukarram qilib yaratgan. Bunga barchamiz birdek musharraf bo‘lishimiz uchun shahdu shijoat ko‘rsatmog‘imiz darkor. Men, 1973 - 2018 yillar davomida oily o‘quv yurtlarda faoliyat ko‘rsatdim va doimo talabalarimdan ma’lum qismining yaxshi o‘qimasligidan tashvishlanib yashadim. Sababi, yoshlarimizdan har biri, jonajon Vatanimizning porloq kelajagini yaratishga, o‘zining hissasini qo‘shadigan insonlar hisoblanadi.

2018-yilning sentabr oyidan boshlab “Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi”da faoliyat ko‘rsatayapman. Shu joyga ishga kelib, talabalarimning yaxshi o‘qimasligi sabablarini bildim.

Markaz rahbarining topshirig‘iga asosan, malaka oshirishga kelgan tinglovchi maktab o‘qituvchilarining o‘zi o‘qitadigan fani bo‘yicha bilimlari ikki yili davomida o‘rganildi. Afsuski, maktablarning biror o‘quv fani bo‘yicha o‘qituvchilarning o‘zlashtirishlari 50% dan oshmadi. Jahonda o‘qitilishiga eng asosiy e‘tibor qaratiladigan matematika fani bo‘yicha, bizning o‘qituvchilardan o‘rtach 57 foizi qoniqarsiz natija ko‘rsatishdi. Mamlakat, bu darajadagi o‘qituvchilarning o‘quvchilaridan nimani kutishi mumkin?

Bu salbiy oqibatning bosh sababi, aksariyat o‘qituvchilarning davlatimiz tomonidan chiqarilgan ta’lim to‘g‘risida qabul qilinayotgan qonunlar, farmonlar, qarorlar va

boshqa me‘yoriy hujjatlardan behabarligi, o‘qitadigan fani, uni o‘qitish metodikasi, pedagogika, psixologiya fanlari yutuqlarini o‘zlashtirib, ularni kasbiy-shaxsiy faoliyatiga qo‘llash bo‘yicha, o‘z ustida, talab darajasida ishlamasligidan iborat.

Malaka oshirishga kelgan o‘qituvchilarning e’tirof etishlaricha, 50% dan ortiq o‘quvchilar o‘zlarining o‘quv imkoniyatlaridan past darajada o‘qigan holda maktablarni bitirishmoqda.

Men, bunday ma’lumotni bergan o‘qituvchilardan biriga “Aytaylik, sinfingizda 25 nafar o‘quvchi bor, ulardan biri sizning farzahdingiz. 24 nafar o‘quvchi yaxshi o‘qiyapdi, bitta sizning farzandingiz yomon o‘qishiga rozimisiz?”- degan savol bilan murojaat qilishni odat qilganman. Ular keskin ravishda “yo’q” deb javob berishadi. Shunday ekan, 50% dan ortiq o‘quvchilarni savodsiz qoldirishni qanday baholaysizlar? O‘sha bilimi past bolaning ota-onasi qariganda, o‘zini eplay olmaydigan bu inson ularga qanday ko‘maklashadi? Bu insonning zimmasiga tushadigan mamlakat yukini kim ko‘taradi? kabi savollarimiz, o‘qituvchilarga o‘zining ta’sirini ko‘rsatmoqda, o‘ylantirib qo‘ymoqda. Ularning aksariyat qismi, o‘z ustimizda ishlab, o‘quvchilarni yaxshi o‘qitmasak bo‘lmas ekan,- degan fikrlarga kelishmoqda.

Xalqimizda “Erni er qiladigan ham, qora yer qiladigan ham …”-degan naql bor. Shunga o‘xshash, mamlakatni yuqori darajada rivojlantiradigan ham, taraqqiyotini susaytiradigan ham o‘qituvchilar hisoblanadi. Chunki, mamlakat taraqqiyoti, undagi yetuk kadrlariga bog‘liq. Bunday kadrlarni esa o‘qituvchilar tayyorlab beradi. Demak, Ona Vatanimizning kelajakdagi taraqqiyoti, bevosita uning oqituvchilari va murabbiy

mutaxassislari kasbiy-shaxsiy faoliyatlarining natijadorligiga bog‘liq.

Repetitorlik qiluvchi o‘qituvchi mustaqil izlanadi, mustaqil o‘rganadi, o‘z ustida tinimsiz ishlaydi. Barcha o‘qituvchilarning oz ustida tizimli ishlashlariga erishmasdan, Vatan taraqqiyotiga erishib bo‘lmaydi.

Hazrat Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o‘gitlarida aytilishicha, muallimlik eng yuksak farz amali bo‘lib, ustozlar haqqiga avvalo Olloh, farishtalar, barcha osmon va er egalari, hatto uyasidagi chumoli, suv ostidagi baliqlar ham salovat aytib turishar ekan. Har qanday kasb egasining, ayniqsa o‘qituvchining o‘z kasbiy-shaxsiy faoliyatiga mas’uliyatsizlik bilan yondashishi Olloh oldida katta gunoh, Vatanga xiyonat hisoblanar ekan. Bundan ko‘rinadiki, Ikki dunyo saodatini o‘ylaydigan har bir inson kasbiga sodiq bo‘lmog‘i darkor.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Ibn Sinoning ilm o‘rganishi tartibi misolida, qadimgi o‘qib-o‘rganish (rejasi)ning 7 bosqichini quyidagicha bayon qilgan: 1) 10 yoshgach madrasada Qur’oni karim yod olingan; 2) qonun, ya’ni shariat ilmi; 3) hisob (matematika); 4) falsafa; 5) mantiq; 6) tib; 7) tabbiiy fanlar o‘rganilgan. Ibn Sino matematika ilmini, ko‘mir sotib tirikchiligini o‘tkazadigan olimdan olgan.

Jahonda “Singapur mujizasi” iborasi ko‘p ishlatiladi. Singapur davlati asoschisi Li Kuan Yuga, siz “Singapur mo‘jizasi”ga qanday erishdingiz, - degan savol ko‘p berilar ekan. Li Kuan Yuning javobi: “Men Singapurda mo‘jiza yaratmadim. Men faqat Vatanim oldidagi burchimni bajardim, xolos. Davlat byudjetini ta’limga yunaltirdim. Muallimni eng quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaga ko‘tardim.

Davlatdagi “mo‘jiza”larni qilgan insonlar muallimlardir. Ular ilm, axloq, mehnat va haqiqatni sevadigan kamtar avlodni etishtirib chiqardilar. Buning uchun ulardan minnatdormiz”.

Respublikamiz Prizidenti Shavkat Mirziyoyv ham davlat boshiga kelgan kundan boshlab, asosiy e’tiborini ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratmoqda. Ta’lim to‘g‘risidagi chiqargan barcha farmonlari, qarorlari, Oliy Majlisga murojaatnomalari, xalq ta’limi xodimlari bilan muloqatlari mazmun mohiyati maktabgacha ta’limni, maktab ta’limini rivojlantirishga, o‘qituvchi va murabbiylarni kasbidan tashqari ishlardan, ortiqcha qog‘ozbozliklardan ozod qilishga, ularning ijtimoiy, iqtisodiy mavqeni oshirishga qaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Republikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyv huzurida 2019-yil 23-avgust kuni “Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash va jamiyatda o‘qituvchi mavqeini oshirish” masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektr majlisi Bayonida “O‘zbekiston Republikasi Prezidenti Administratsiyasi, Hukumati, barcha darajadagi davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari, mahalliy hokimliklar rahbarlarining e’tibori maktab ta’limini rivojlantirish buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatlga aylanishi, ustozlarga yuksak hurmat-ehtirom ko‘rsatish – jamiyatimizda oliy qadriyat darajasiga ko‘tarilishi zarur ekanligi ko‘rsatilsin”.

Joylarda barcha rahbarlar va mutasaddilar “Butut kuchni xalq ichidan olaylik, quchoq ochib maktablarga boraylik” shiori ostida maktab ta’limini rivojlantirishga yunaltirilgan buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatlga ytakchilik qilishi ko‘rsatib o‘tilsin” kabi qator, juda muhim qarorlar o‘z aksini topgan.

Respublikamiz xalqaro baholash tashkilotlariga a’zo bo‘ldi. 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunsh darajasi baholash uchun PIRLIS, 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yunalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholashda TIMISS, 15 yoshli ta’lim oluvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yunalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashda PISA, jahon miqyosida katta e’tibor qaratilayotgan STEAM (S – scitnce (tabiiy fanlar), T – technology (texnologiya), E – engineering (muxandislik san’ati), A – art (ijod), M – mathematics (matematika)) dasturi asosida amalga oshiriladigan bo‘ldi.

Ushbu tashkilotlarning barchasida matematik ta’limga aloxida e’tibor qaratilgan. Bunga hamohang tarzda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4708-son Qarori e’lon qilindi.

Biroq, 2022-yilda Respublikamiz oily o‘quv yurtlariga hujjat topshirgan 1 073 821 abituriyintlardan 51,2 foizi, ya‘ni 550 102 nafarining test natijalari o‘ta afsuslanarli, biz pedagoglar uchun esa uyat bo‘ldi. Ular ko‘rsatgan test natijalari 56,7 ballga ham yitmadi.

Muqaddas kitobimiz Qur’oni Karim “Iqro”, ya’ni o‘qi deb boshlangan bo‘lsa, Payg‘ambarimiz (s.a.v): “Beshikdan qabrgacha ilm izlang”,- deb marhamat qilgan bo‘lsalar, Imom Buxoriy (r.a): “Dunyoda ilmdan boshqa najot yuq va bo‘lmagay”,-deb aytgan bo‘lsa, Republikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘qituvchi va murabbiylar biz uchun ibrat

namunasi, barcha insoniy fazilatlar timsolidir", - deb bizlarni ulug‘laydi.

Biz muallim va murabbiylar kitoblarda va davlatimiz rahbari tomonidan shunchalik ulug‘lanar ekanmiz, Ona Vatanimizning porloq kelajagi va avlodlarimizning bizdan rozi bo‘lishlari, faxrlanishlari, ikki dunyomizning saodatli bo‘lishi uchun kasbimizga sodiqlik bilan mehnat qilishimiz zarur.

Men, Davlat test markazi tomonidan 1996-2003 yillarda chop etilgan 89 ta "Axborotnoma" ning 77 tasida matematika fanidan berilgan 5773 ta misol va masalalarni, 2003 yildan so‘ng "Matematika" va "Abiturient" ruknlarida e'lon qilingan misol va masalalarni yechib chiqqanman. Tabiiy-ki, malakalarini oshirishga kelgan maktablar o‘qituvchilarda "70 yoshdan oshgan bobo shuncha ish qilayotgan ekan, men nima qilayapman",-degan fikrni uyg‘otish, ularni o‘z ustida ishlashga va repetitorlik qilishga yunaltirish maqsadida, yechilgan misol va masalalarimni matematika va fizika yunalishlari tinglovchilariga ko‘rsataman. Ishlarni ko‘rgan, mutaxassisligi qaysi fandan bo‘lishiga qaramasdan, ularni kitob qilib chiqarishimni taklif etishadi, hamma uchun foydali bo‘lishini ta'kidlashadi. Hatto ko‘pchiligi, qo‘lyozmalarimdan nushalar olishmoqdalar.

Hamkasblarimning takliflariga asosan, o‘zim yechgan misol va masalalarimni o‘quv qo‘llanma shakliga nashr etishga kirishdim. Bunda, misol va masalalarning yechimlarini berishda, kitobxonni ko‘proq mustaqil izlanishga, mustaqil fkrlashga, mustaqil ishlashga yunaltirishni maqsad qilib qo‘ydik, ya'ni o‘quvchi foydalanilgan formulalarni izlab topsin, masala yechilishining oson joylari, o‘quvchining qo‘liga qog‘oz, ruchka

olib oxiriga yetkazishi uchun qoldirilgan. Boshqacha aytganda masalalarning yechimlarini berishda “Keys stadi” talablari e’tiborga olindi.

Masalalarni yechishga bunday yondashuv, ta’lim oluvchilarni bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirish bilan birga, ularda kompetentli-faoliyatli bo‘lishlarini kuchaytiradi, o‘zluksiz ta’lim olish, ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish layoqatini hosil qiladi.

Kitob yozishning bosh maqsadi, insonlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga ko‘maklashish asosida jamiyat, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishdan iborat.

“Matematikadan misol va masalalar yechish” nomli 4-kitob, 2000-yilda davlat test markazi tomonidan e’lon qilingan 10 ta axborotnomalarning 642 ta misol va masalalari, javoblar variantlari, yechimlar, to‘g‘ri javiblar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda mundarijadan iborat.

Xulosa qilib aytganda, barchamiz birgalikda Vatanimiz, elimiz manfaati yo‘lida umr bo‘yi o‘quvchi bo‘lib qolaylik, eng muhimi mustaqil izlanib, mustaqil o‘rganib, yangidan yangi g‘oyalarni o‘zlashtiraylik, ularni hayotga tatbiq etishda haqiqiy pragmatik bo‘lib, millatimizning koriga yaraydigan azmu shijoatli, g‘ayratu jasoratli, aqlu zakovatli, jamiyat, davlat va oila oldida o‘zining mas’uliyatini chuqur anglaydigan, erkin fikrlovchi, faol, ilmni, axloqni, mehnatni va haqiqatni sevadigan, kamtar insonlarni o‘qitib tayyorlab beraylik.

Pirnazar DAVRONOV

2000-YIL, 1-AXBOROTNOMA

1. $\frac{\frac{5}{11}\cdot 0{,}006\cdot 2\frac{1}{5}+1\frac{1}{8}\cdot 0{,}004\cdot\frac{8}{9}}{0{,}5\cdot 0{,}0009+0.0001\cdot 0{,}5}$ ni hisoblang.

   A) 10 B) 0,4 C) 20 D) 2 E) 0,2

   Yechilishi: $\frac{\frac{5}{11}\cdot 0{,}006\cdot 2\frac{1}{5}+1\frac{1}{8}\cdot 0{,}004\cdot\frac{8}{9}}{0{,}5\cdot 0{,}0009+0.0001\cdot 0{,}5}=\frac{0{,}01}{0{,}5\cdot 0{,}001}=\frac{0{,}01}{0{,}0005}=20.$

   Javobi: C.

2. 1 dan 50 gacha bo‘lgan sonlar ko‘paytmasi nechta nol bilan tugaydi?

   A) 14 B) 10 C) 13 D) 11 E) 12

   Yechilishi: $\left[\frac{50}{5}\right]+\left[\frac{50}{5^2}\right]=10+2=12.$ Javobi: E.

3. Inflyatsiya natijasida maxsulotning narxi 25% ga oshirildi.Lekin maxsulotga talabning kamligi tufayli uning narxi 10% ga kamaytirildi. Maxsulotning oxirgi narxi dastlabkisiga qaraganda necha foiz ortdi?

   A) 12,8 B) 11,5 C) 12 D) 12,5 E) 15

   Yechilishi: 1) $\frac{100+25}{100}\cdot x=1{,}25x;$ 2) $\frac{100-10}{100}\cdot 1{,}25x=$

   $=1{,}125x\Rightarrow 12{,}5\%.$ Javobi: D.

4. Yilning qaysidir oyida uchta shanba kuni oyning juft kunlariga to‘g‘ri kelgan. Shu oyning 25-kuni xaftaning qaysi kuniga mos keladi?

   A) seshanba B) chorshanba C) dushanba

D) payshanba E) juma

Yechilishi: 2, 9, 16, 23, 30: dushanbalar. Javobi: C.

5. Ikkixonali sonning o‘ng tomoniga 0 raqami yozilsa, berilgan sonning yarmi bilan 323 ning yig‘indisi ga teng bo‘lgan son hosil bo‘ladi. Berilgan sonni toping.

A) 54 B) 14 C) 24 D) 44 E) 34

Yechilishi: $\overline{xy0} = \frac{\overline{xy}}{2} + 323 \Rightarrow 100x + 10y =$

$$= \frac{10x + y}{2} + 323 \Rightarrow 100x + 10y = 5x + \frac{1}{2}y + 323 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow 95x + 9{,}5y = 323 \Rightarrow \ \ x = 3, \ \ y = 4; \ \ xy = 34.$$

Javobi: E.

6. Sayohat uchun ma’lum miqdorda pul yig‘ish kerak edi. Agar har bir sayohatchi 750 so‘mdan to‘lasa, to‘lovga 1200 so‘m yetmaydi, agar har bir sayohatchi 800 so‘mdan to‘lasa, keragidan 1200 so‘m ortib qoladi. Sayohatda necha kishi qatnashishi kerak?

A) 38 B) 48 C) 45 D) 46 E) 47

Yechilishi: $750x + 1200 = 800x - 1200$

$50x = 2400 \Rightarrow x = 48$. Javobi: B.

7. $\sqrt{\frac{a^{\frac{3}{2}} - b^{\frac{3}{2}}}{a^{\frac{1}{2}} - b^{\frac{1}{2}}} + a^{\frac{1}{2}}b^{\frac{1}{2}}} - \sqrt{\frac{a^{\frac{3}{2}} + b^{\frac{3}{2}}}{a^{\frac{1}{2}} + b^{\frac{1}{2}}} - a^{\frac{1}{2}}b^{\frac{1}{2}}}$ ni soddalashtiring.

Bunda $(b > a > 0)$.

A) $2\sqrt{a}$ B) $2\sqrt{b}$ C) $2(\sqrt{b} - 2\sqrt{a})$

D) $2(\sqrt{a}-2\sqrt{b})$ E) $2\sqrt{b}-\sqrt{a}$

Yechilishi: $\sqrt{\frac{a\sqrt{a}-b\sqrt{b}}{\sqrt{a}-\sqrt{b}}+\sqrt{a}\cdot\sqrt{b}}-\sqrt{\frac{a\sqrt{a}+b\sqrt{b}}{\sqrt{a}+\sqrt{b}}-\sqrt{a}\cdot\sqrt{b}}=$

$$=\sqrt{\frac{a\sqrt{a}-b\sqrt{b}+a\sqrt{b}-b\sqrt{a}}{\sqrt{a}-\sqrt{b}}}-\sqrt{\frac{a\sqrt{a}+b\sqrt{b}-a\sqrt{b}-b\sqrt{a}}{\sqrt{a}+\sqrt{b}}}=$$

$$=\sqrt{\frac{\sqrt{a}(a-b)+\sqrt{b}(a-b)}{\sqrt{a}-\sqrt{b}}}-\sqrt{\frac{\sqrt{a}(a-b)-\sqrt{b}(a-b)}{\sqrt{a}-\sqrt{b}}}=$$

$$=\sqrt{\frac{(a-b)\left(\sqrt{a}+\sqrt{b}\right)}{\sqrt{a}-\sqrt{b}}}-\sqrt{\frac{(a-b)\left(\sqrt{a}-\sqrt{b}\right)}{\sqrt{a}-\sqrt{b}}}=$$

$$=\sqrt{\frac{\left(\sqrt{a}-\sqrt{b}\right)\left(\sqrt{a}+\sqrt{b}\right)\left(\sqrt{a}+\sqrt{b}\right)}{\left(\sqrt{a}-\sqrt{b}\right)}}$$

$$-\sqrt{\frac{\left(\sqrt{a}-\sqrt{b}\right)\left(\sqrt{a}+\sqrt{b}\right)\left(\sqrt{a}-\sqrt{b}\right)}{\sqrt{a}+\sqrt{b}}}=$$

$$=\left|\sqrt{a}+\sqrt{b}\right|-\left|\sqrt{a}-\sqrt{b}\right|=\sqrt{a}+\sqrt{b}+\sqrt{a}-\sqrt{b}=2\sqrt{a}.$$

Javobi: A.

8. $nx=n^2-12$ tenglamani ildizlari natural son bo‘ladigan $n(n\epsilon N)$ ning barcha qiymatlari yig‘indisini toping.

A) 20 B) 18 C) 22 D) 16 E) 24

Yechilishi: $x=n-\frac{12}{n};\ n=4,6,12\Rightarrow 4+6+12=22.$

Javobi: C.

9. t ning qanday qiymatlarida tenglamasi $y = tx^2 + 16tx + 68t$ bo‘lgan parabola OX o‘qidan yuqorida yotmaydi?

A) $(-\infty; 0)$ B) $(0; 4)$ C) $(-\infty; -4)$

D) $(-\infty; -4) \cup (4; \infty)$; E) $(-4; 0)$

Yechilishi: $Masala\ shartiga\ ko'ra, \begin{cases} t < 0 \\ D < 0 \end{cases} bo'lishi$

$talab\ etiladi. (16t)^2 - 4 \cdot t \cdot 68t < 0 \Rightarrow -16t^2 < 0.$

$Bu\ tengsizlik\ \ t = 0\ dan\ boshqa\ barcha\ qiymatlarda\ o'rinli. Demak, t\epsilon\ (-\infty; 0).$ Javobi: A.

10. $x^2 - \frac{1}{2}kx + k^2 - 11k + 24 = 0\ (k = const)$ tenglamaning ildizlaridan biri 0 ga teng. Shu shartni qanoatlantiruvchi ildizlarning yig‘indisini toping.

A) 4,5 B) 5,5 C) 6 D) 6,5 E) 5

Yechilishi: $\begin{cases} x_1 = 0 \\ x_1 + x_2 = \frac{1}{2}k \\ x_1 \cdot x_2 = k^2 - 11k + 24 \end{cases} \Rightarrow$

$\begin{cases} x_2 = \frac{k}{2} \\ k^2 - 11k + 24 = 0 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow k_1 = 3;\ \ k_2 = 8.\ U\ holda\ x_2 = 1{,}5\ va\ x_2 = 4.$

$1{,}5 + 4 = 5{,}5$.Javobi: B.

11. Agar $a^2 - 4a + 5 + b^2 - 2b = 0$ bo‘lsa, $(a + b)^3$ ning qiymatini toping.

A) 26 B) 27 C) 28 D) 25 E) 24

Yechilishi: $a^2 - 4a + 5 + b^2 - 2b = 0 \Rightarrow$

$$\Rightarrow a^2 - 4a + 2^2 + b^2 - 2b + 1^2 = 0 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow (a-2)^2 + (b-1)^2 = 0 \Rightarrow \begin{cases} a = 2; \\ b = 1. \end{cases}$$

$(a+b)^3 = 3^3 = 27.$ Javobi: B.

12. $2x^2 - 26x + 72 = 0$ tenglama ildizlarining o‘rta proportsionalini toping.

A) 4 B) 5 C) 7 D) 6 E) 8

Yechilishi: $2x^2 - 26x + 72 = 0 \Rightarrow x^2 - 13x + 36 = 0$

$$x_{1,2} = \frac{13}{2} \pm \sqrt{\frac{169}{4} - 36} = \frac{13}{2} \pm \frac{5}{2} \Rightarrow \begin{cases} x_1 = 4 \\ x_2 = 9 \end{cases} \Rightarrow$$

$\Rightarrow \sqrt{x_1 \cdot x_2} = 6.$ Javobi: D.

13. Agar y_1 va y_2, $y^2 - by + b - 1 = 0$ tenglamaning ildizlari bo‘lsa, b ning qanday qiymatida ${y_1}^2 + {y_2}^2$ ifodaning qiymati eng kichik bo‘ladi?

A) 1,2 B) 0,85 C) 1 D) 1,5 E) 2

Yechilishi: $y^2 - by + b - 1 = 0 \Rightarrow, y_{1,2} =$

$$= \frac{b}{2} \pm \sqrt{\frac{b^2}{4} - b + 1} = \frac{b}{2} \pm \sqrt{\frac{b^2 - 4b + 4}{4}} =$$

$$= \frac{b}{2} \pm \sqrt{\frac{(b-2)^2}{4}} = \frac{b}{2} \pm \frac{|b-2|}{2} \Rightarrow \begin{cases} y_1 = \dfrac{b - |b-2|}{2} \\ y_2 = \dfrac{b + |b-2|}{2} \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} b - 2 \geq 0 \\ b - 2 < 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y_1 = 1 \\ y_2 = b - 1 \end{cases} \Rightarrow$$

$\Rightarrow {y_1}^2 + {y_2}^2 = 1^2 + (b-1)^2 \Rightarrow b = 1.$ Javobi: C.

14. $(m-3)(m-7)$ ifodaning qiymati m ning har qanday qiymatida musbat bo‘lishi uchun unga qanday eng kichik butun sonni qo‘shish kerak?

A) 4 B) 8 C) 3 D) 6 E) 5

Yechilishi: $(m-3)(m-7) = m^2 - 7m - 3m + 21 =$

$= m^2 - 10m + 21 + 4 \Rightarrow (m-5)^2 \geq 0 \Rightarrow 5.$ Javobi: E.

15. Agar $m > 0, n > 0 \text{va} m + n = 16$ bo‘lsa mn ning eng kata qiymatini toping.

A) 62 B) 72 C) 64 D) 60 E) 66

Yechilishi: $m > 0, n > 0;\ m + n = 16.\ n = m$

$bo'lganda, m \cdot n\ ko'paytma\ eng\ katta\ qiymatga$

$ega\ bo'ladi. 2m = 16 \Rightarrow m = n = 8 \Rightarrow m \cdot n = 64.$

$$Jumladan \begin{matrix} m = 1, & 2, & 3, & 4, & 5, & 6, & 7, & 8; \\ n = 15, & 14, & 13, & 12, & 11, & 10, & 9, & 8. \end{matrix} \Rightarrow$$

$\Rightarrow m \cdot n = 64.$ Javobi: C.

16. $(x^4 + x^2 + 1)(x^4 + x^2 + 2) - 12$ ifoda nechta ratsional koeffitsientli ko‘paytuvchilarga ajraladi?

A) 4 B) 2 C) 3 D) 5 E) 6

Yechilishi: $(x^4 + x^2 + 1)(x^4 + x^2 + 2) - 12;$

$$x^4 + x^2 = t \Rightarrow (t+1)(t+2) - 12 = 0 \Rightarrow$$

$$\begin{cases} t_1 = -5 \\ t_2 = 2 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x^4 + x^2 \neq -5 \\ x^4 + x^2 = 2 \end{cases} \Rightarrow x^2 = y \Rightarrow$$

$$\Rightarrow y^2+y-2=0 \Rightarrow \begin{cases} y_1=-2 \\ y_2=1 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x^2\neq -2 \\ x^2=1 \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow x_1=-1;\ x_2=1. \qquad (x^4+x^2+5).$$

$.(x^2+2)(x-1)(x+1)$. Javobi: A.

17. $2x^2+2xy+2y^2+2x-2y+3$ko‘phad eng kichik qiymatga erishganda, xy ning qiymati qanday bo‘ladi?

A) 1 B) -2 C) 2 D) 1,5 E) -1

Yechilishi: $2x^2+2xy+2y^2+2x-2y+3=$

$$=x^2+2xy+y^2+x^2+2x+1+y^2-2y+1+1=$$

$$=(x+y)^2+(x+1)^2+(y-1)^2+1 \Rightarrow \begin{cases} x=-1 \\ y=1 \end{cases} \Rightarrow$$

$\Rightarrow x\cdot y=-1\cdot 1=-1$. Javobi: E.

18. $\begin{cases} x\geq 3, \\ |x-3|\leq 1 \end{cases}$ tengsizliklar sistemasini yeching.

A) $2\leq x\leq 3$ B) $-2\leq x\leq 4$ C) $3\leq x\leq 4$

D) $x\leq 4$ E) $x\leq 2$

Yechilishi: $\begin{cases} x\geq 3, \\ |x-3|\leq 1 \end{cases} \Rightarrow$

$$\Rightarrow \begin{cases} x\geq 3 \\ -1\leq x-3\leq 1 \end{cases} \Rightarrow$$

$\Rightarrow \begin{cases} x\geq 3; \\ 2\leq x\leq 4. \end{cases}$ Javobi: C.



19. Agar $\sqrt{1-\frac{1}{x}}=\frac{x-1}{x}-6$ bo‘lsa, $6\frac{1}{8}+x$ ning qiymatini toping.

A) -7 B) 6 C) 7 D) -6 E) 8

Yechilishi: $\sqrt{1-\frac{1}{x}}=\frac{x-1}{x}-6;\ \ \frac{x-1}{x}=y$

$\sqrt{y} = y - 6 \Rightarrow y = y^2 - 12y + 36 \Rightarrow$

$\Rightarrow y^2 - 13y + 36 = 0; \quad y_{1,2} = \frac{13}{2} \pm \sqrt{\frac{169}{4} - 36} =$

$= \frac{13}{2} \pm \frac{5}{2} \Rightarrow \begin{cases} y_1 = 4 \ chet\ ildiz \\ y_2 = 9 \ ildiz \end{cases} \Rightarrow \quad \frac{x-1}{x} = 9 \Rightarrow$

$$x - 1 = 9x \Rightarrow 8x = -1 \Rightarrow x = -\frac{1}{8} \Rightarrow$$

$\Rightarrow 6\frac{1}{8} + x = 6 + \frac{1}{8} - \frac{1}{8} = 6.$ Javobi: B.

20. $\left(\frac{1}{\sqrt{a+1}+\sqrt{a}} + \frac{1}{\sqrt{a}-\sqrt{a-1}}\right)\left(\sqrt{a+1} - \sqrt{a-1}\right)$ ni soddalashtiring.

A) 1 B) 2 C)$2\sqrt{a}$ D) $2\sqrt{a-1}$ E) $2\sqrt{a+1}$

Yechilishi: $\left(\frac{1}{\sqrt{a+1}+\sqrt{a}} + \frac{1}{\sqrt{a}-\sqrt{a-1}}\right)\left(\sqrt{a+1} - \sqrt{a-1}\right) =$

$$= \left(\frac{\sqrt{a+1} - \sqrt{a}}{a+1-a} + \frac{\sqrt{a} + \sqrt{a-1}}{a-a+1}\right) \cdot \left(\sqrt{a+1} - \sqrt{a-1}\right) =$$

$$= \left(\sqrt{a+1} + \sqrt{a-1}\right)\left(\sqrt{a+1} - \sqrt{a-1}\right) =$$

$= a + 1 - a + 1 = 2.$ Javobi: B.

21. Arifmetik progressiyaning dastlabki to‘rtta hadi yig‘indisi 124 ga, oxirgi to‘rttasiniki156 gateng. Progressiyaning hadlari yig‘indisi 350 ga teng. Progressiyaning nechta hadi bor?

A) 8 B) 9 C) 11 D) 10 E) 7

Yechilishi: $a_1 + a_2 + a_3 + a_4 = 124;$

$$a_{n-3}+a_{n-2}+a_{n-1}+a_n=156.\ \ S_n=350.$$

$$\begin{cases} a_1+a_4=62 \\ a_{n-3}+a_n=78 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} a_1+a_1+3d=62 \\ a_n-3d+a_n=78 \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} 2a_1+3d=62 \\ 2a_n-3d=78 \end{cases} \Rightarrow 2(a_1+a_n)=140 \Rightarrow$$

$\Rightarrow a_1+a_n=70.\quad 350=\frac{70}{2}\cdot n \Rightarrow n=10.$ Javobi: D.

22. Cheksizkamayuvchi geometrik progressiyaning hadlari yig‘indisi 12 ga, maxraji esa $-\frac{1}{2}$ ga teng. Uning birinchi va ikkinchi hadlari ayirmasini toping.

Yechilishi: $S=\frac{b_1}{1-q} \Rightarrow 12=\frac{b_1}{1-\left(-\frac{1}{2}\right)}=\frac{b_1}{\frac{3}{2}}=\frac{2b_1}{3} \Rightarrow$

$\Rightarrow b_1=18;\quad b_2=b_1\cdot q$=$18\cdot\left(-\frac{1}{2}\right)=-9.$

$b_1-b_2=18-(-9)=27.$ Javobi: E.

23. Agar $a-b=1$va$(a^2-b^2)(a-b)=9$ bo‘lsa, ab ning qiymatini toping.

A) 19 B) 22 C) 21 D) 20 E) 24

Yechilishi: $\begin{cases} a-b=1 \\ (a-b)(a+b)(a-b)=9 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} a-b=1 \\ a+b=9 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} a=5 \\ b=4 \end{cases} \Rightarrow a\cdot b=20.$ Javobi: D.

24. $\sqrt{9-x}\le 2$tengsizlikning yechimlari OX o‘qida joylashtirilsa, qanday uzunlikdagi kesma hosil boladi?

A) 4 B) 3,8 C) 4,5 D) 4,8 E) 5

Yeshilishi: $\sqrt{9-x}\le 2 \Rightarrow$



$\Rightarrow \begin{cases} 9-x \geq 0 \\ 9-x \leq 4 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x \leq 9 \\ x \geq 5 \end{cases}$

$9-5=4$. Javobi: A.

25. Keltirilgan sonlardan eng kattasini toping.

A) $sin1$ B) $cos\left(\frac{\pi}{2}-\frac{1}{2}\right)$ C) $sin4$

D) $cos\left(\frac{\pi}{2}+\frac{1}{4}\right)$ E) $tg\frac{\pi}{4}$

Yechilishi: $sin1 \approx 57°$; $cos\left(\frac{\pi}{2}-\frac{1}{2}\right)=sin\frac{1}{2} \approx sin29°$;

$sin4 \approx sin228° = sin(180°+48°) = -sin58°$;

$\cos\left(\frac{3\pi}{2}+\frac{1}{4}\right)=sin\frac{1}{4} \approx sin15°$; $tg\frac{\pi}{4}=1$. Javobi: E.

26. $\frac{sin\left(\frac{\pi}{2}-\alpha\right)\cos(\pi+\alpha)}{ctg(\pi+\alpha)tg\left(\frac{3\pi}{2}-\alpha\right)}$ni soddalashtiring.

A) $-sin^2\alpha$ B) $-cos^2\alpha$ C) $-sin^2\alpha tg^2\alpha$

D)$cos^2\alpha tg^2\alpha$ E) $sin^2\alpha tg^2\alpha$

Yechilishi: $\frac{sin\left(\frac{\pi}{2}-\alpha\right)\cos(\pi+\alpha)}{ctg(\pi+\alpha)tg\left(\frac{3\pi}{2}-\alpha\right)}=\frac{cos\alpha\cdot(-cos\alpha)}{ctg\alpha\cdot ctg\alpha}=\frac{-cos^2\alpha}{ctg^2\alpha}=$

$=-cos^2\alpha:\frac{cos^2\alpha}{sin^2\alpha}=-sin^2\alpha$. Javobi: A.

27. $\frac{1-cos2\alpha}{1+cos2\alpha}+1$ni soddalashtiring.

A) $cos^{-2}\alpha$ B) $sin^{-2}\alpha$ C) $sin^2\alpha$

D) cos^{-2} E) $-cos^2\alpha$

Yechilishi: $\frac{1-cos2\alpha}{1+cos2\alpha}+1 \Rightarrow tg^2\alpha+1=\frac{1}{cos^2\alpha}=cos^{-2}\alpha$.

Javobi: A.

28. $\frac{sin35°+cos65°}{2cos5°}$ni hisoblang.

A) 0,25 B) 0,75 C) 0,5 D) 0,6 E) 0,3

Yechilishi: $\frac{sin35°+cos65°}{2cos5°} = \frac{\sin(30°+5°)+\cos(60°+5°)}{cos5°} =$

$$= \frac{sin30°cos5° + cos30°sin5° + cos60°cos5° - sin60°sin5°}{2cos5°}$$

$=$

$= \frac{\frac{1}{2}cos5°+\frac{\sqrt{3}}{2}sin5°+\frac{1}{2}cos5°-\frac{\sqrt{3}}{2}sin5°}{2cos5°} = \frac{1}{2}$. Javobi: C.

29. Agar $\alpha = -45°$va$\beta = 15°$ bo‘lsa,

$\cos(\alpha+\beta) + 2sin\alpha sin\beta$ning qiymatini toping.

A) $-\frac{1}{2}$ B) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ C) $-\frac{\sqrt{3}}{2}$ D) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ E) $\frac{1}{2}$

Yechilishi: $\alpha = -45°$, $\beta = 15°$; $\cos(\alpha+\beta) +$
$+2sin\alpha sin\beta = cos\alpha cos\beta - sin\alpha sin\beta + 2sin\alpha sin\beta =$

$=cos\alpha cos\beta + sin\alpha sin\beta = \cos(\alpha-\beta) =$

$= \cos(-45° - 15°) = \cos(-60°) = \frac{1}{2}$. Javobi: E.

30. Agar α o‘zgaruvchi miqdor bo‘lsa, $4\left(\sqrt{3}cos\alpha + sin\alpha\right)$ ning eng katta qiymati qanchaga teng?

A) 9,5 B) 7 C) 8 D) 6,5 E) 7,5

Yechilishi: $4\left(\sqrt{3}cos\alpha + sin\alpha\right)$;

$$-\sqrt{a^2+b^2} \le acos\alpha + bsin\alpha \le \sqrt{a^2+b^2}$$

$formulaga\ asosan$

$$-4\sqrt{3+1} \le 4\left(\sqrt{3}cos\alpha + sin\alpha\right) \le 4\sqrt{a^2+b^2} \Rightarrow$$

$\Rightarrow -8 \le 4\left(\sqrt{3}cos\alpha + sin\alpha\right) \le 8$. Javobi: C.

31. $ctg2\alpha - ctg\alpha$ni soddalashtiring.

A) $\frac{1}{sin2\alpha}$ B)$\frac{1}{cos2\alpha}$ C)$\frac{1}{-sin2\alpha}$ D) $\frac{1}{cos2\alpha}$ E)$-\frac{1}{sin^2\alpha}$

Yechilishi:$ctg2\alpha - ctg\alpha = \frac{ctg^2\alpha - 1}{2ctg\alpha} - ctg\alpha =$

$$= \frac{ctg^2\alpha - 1 - 2ctg^2\alpha}{2ctg\alpha} = \frac{-ctg^2\alpha - 1}{2ctg\alpha} = -\frac{ctg^2\alpha + 1}{2ctg\alpha} =$$

$$= -\frac{\frac{1}{sin^2\alpha}}{\frac{2cos\alpha}{sin\alpha}} = -\frac{1}{sin^2\alpha} : \frac{2cos\alpha}{sin\alpha} = -\frac{1}{sin^2\alpha} \cdot \frac{sin\alpha}{2cos\alpha} =$$

$= -\frac{1}{2sin\alpha cos\alpha} = -\frac{1}{sin2\alpha}$. Javobi: C.

32. Agar $tg\alpha + tg\beta = \frac{5}{6}vatg\alpha \cdot tg\beta = \frac{1}{6}$ bo‘lsa, $\alpha + \beta$ nimaga teng bo‘ladi?

A) $\frac{\pi}{6} + \pi k, k\epsilon Z$ B)$-\frac{\pi}{4} + \pi k, k\epsilon Z$ C)$-\frac{\pi}{6} + \pi k, k\epsilon Z$

D) $\frac{\pi}{4} + \pi k, k\epsilon Z$ E) $\frac{\pi}{3} + \pi k, k\epsilon Z$

Yechilishi: $tg\alpha + tg\beta = \frac{5}{6}$; $tg\alpha \cdot tg\beta = \frac{1}{6}$;

$$tg(\alpha+\beta) = \frac{tg\alpha + tg\beta}{1 - tg\alpha \cdot tg\beta} = \frac{\frac{5}{6}}{1 - \frac{1}{6}} = 1 \Rightarrow$$

$\alpha + \beta = \frac{\pi}{4} + \pi k,\ k\epsilon Z$. Javobi: D.

33. $2(arccosx)^2+\pi^2=3\pi arccosx$ tenglamaning ildizlari yig‘indisini toping.

A) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ B) -1 C) 1 D) $-\frac{\sqrt{2}}{2}$ E) $\frac{1}{2}$

Yechilishi: $2(arccosx)^2+\pi^2=3\pi arccosx$

$$arccosx=y\Rightarrow 2y^2-3\pi y+\pi^2=0\Rightarrow$$

$$\Rightarrow y_{1,2}=\frac{3\pi\pm\sqrt{9\pi^2-4\cdot 2\cdot\pi^2}}{2\cdot 2}=\frac{3\pi\pm\pi}{4}$$

$$\Rightarrow\begin{cases}y_1=\frac{\pi}{2}\\ y_2=\pi\end{cases}\Rightarrow$$

$$\Rightarrow\begin{cases}arccosx=\frac{\pi}{2}\\ arccosx=\pi\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}cosarccosx=cos\frac{\pi}{2}\\ cosarccosx=cos\pi\end{cases}\Rightarrow$$

$\Rightarrow\begin{cases}x_1=0\\ x_2=-1\end{cases}\Rightarrow x_1+x_2=-1.$ Javobi: B.

34. $y=\left(sin\frac{\pi}{4}\right)^{x^2-2x}$ funksiyaning eng katta qiymatini toping.

A) $-1{,}5\sqrt{2}$ B)$-\sqrt{2}$ C)$1{,}5\sqrt{2}$ D) $\sqrt{2}$ E) $2\sqrt{2}$

Yechilishi: $y=\left(sin\frac{\pi}{4}\right)^{x^2-2x}\Rightarrow y=\left(\frac{\sqrt{2}}{2}\right)^{x^2-2x}$.

$$y'=\left(\frac{\sqrt{2}}{2}\right)^{x^2-2x}ln\frac{\sqrt{2}}{2}\cdot(2x-2)=0\Rightarrow$$

$$\Rightarrow 2x-2=0\Rightarrow x=1\Rightarrow y=\left(\frac{\sqrt{2}}{2}\right)^{1-2}=\left(\frac{\sqrt{2}}{2}\right)^{-1}=$$

$=\frac{2}{\sqrt{2}}=\frac{2\sqrt{2}}{\sqrt{2}\cdot\sqrt{2}}=\sqrt{2}.$ Javobi: D.

35. $100^{2lg5-lg15}$ni hisoblang.

A) $2\frac{4}{9}$ B) 2,4 C) $2\frac{8}{9}$ D) $2\frac{7}{9}$ E) $3\frac{1}{9}$

Yechilishi: $100^{2lg5-lg15} = 100^{lg25-lg15} = 10^{2lg\frac{25}{15}} =$

$= 10^{lg\left(\frac{5}{3}\right)^2} = \frac{25}{9} = 2\frac{7}{9}$. Javobi: D.

36. $\left(\frac{2}{3}\right)^x = \sqrt[4]{1{,}5}$ tenglamaning ildizi 1 dan qancha kam?

A) 1,75 B) 0,75 C) 1,5 D) 2,1 E) 1,25

Yechilishi: $\left(\frac{2}{3}\right)^x = \sqrt[4]{\frac{3}{2}} \Rightarrow \left(\frac{2}{3}\right)^x = \left(\frac{2}{3}\right)^{-\frac{1}{4}} \Rightarrow x = -\frac{1}{4} \Rightarrow$

$\Rightarrow 1 - \left(-\frac{1}{4}\right) = 1{,}25.$ Javobi: E.

37. $\log_8 \log_4 \log_2 x = 0$ tenglamani yeching.

A) 12 B) 13 C) 16 D) 15 E) 18

Yechilishi: $\log_8 \log_4 \log_2 x = 0 \Rightarrow \log_4 \log_2 x = 8^0 \Rightarrow$

$\Rightarrow \log_2 x = 4^1 \Rightarrow x = 2^4 \Rightarrow x = 16$.Javobi: C.

38. Agar $\log_{12} 2 = a$ bo‘lsa, $\log_6 16$ ning qiymatini toping.

A) $\frac{4a}{1+a}$ B)$\frac{2a}{1-a}$ C)$\frac{4a}{1-a}$ D)$\frac{3a}{1+a}$ E)$\frac{3a}{1-a}$

Yechilishi: $\log_{12} 2 = a;$ $\log_6 16 = \frac{\log_{12} 16}{\log_{12} 6} = \frac{4\log_{12} 2}{\log_{12}\frac{12}{2}} =$

$= \frac{4a}{\log_{12} 12 - \log_{12} 2} = \frac{4a}{1-a}$. Javobi: C.

39. Quyida keltirilgan sonlardan kattasini belgilang.

A)$\log_2 18 - \log_2 9$ B)$3^{\log_3 6}$ C)$lg25 + lg4$

D) $\log_{13} 169^2$ E)$\frac{\log_8 4}{\log_8 64}$

Yechilishi: $\log_2 \frac{18}{9} = 1$; $3^{\log_3 6} = 6$; $\lg 25 + \lg 4 = 2$;

$\log_{13} 13^4 = 4$; $\frac{\log_8 4}{4 \log_8 4} = \frac{1}{4}$. Javobi: B.

40. $\frac{2^{2x-1} \cdot 4^{x+1}}{8^{x-1}} = 64$ tenglamani yeching.

A) 3 B) 2 C) 4 D) -2 E) -3

Yechilishi: $\frac{2^{2x-1} \cdot 4^{x+1}}{8^{x-1}} = 64 \Rightarrow \frac{2^{2x-1} \cdot 2^{2x+2}}{2^{3x-3}} = 64 \Rightarrow$

$\Rightarrow \frac{2^{4x+1}}{2^{3x-3}} = 64 \Rightarrow 2^{4x+1-3x+3} = 2^6 \Rightarrow x + 4 = 6 \Rightarrow$

$\Rightarrow x = 2.$ Javobi: B.

41. $\log_2(\log_2 a^8)$ son $\log_2 \log_2 a$dan qanchaga ko‘p?

A) 2,5 B) 3,2 C) 3 D) 4 E) 2

Yechilishi: $\log_2(\log_2 a^8) - \log_2 \log_2 a = \log_2 \frac{\log_2 a^8}{\log_2 a} =$

$= \log_2 8 = \log_2 2^3 = 3 \log_2 2 = 3.$ Javobi: C.

42. $f(x) = \frac{|x-2|}{x-2} + 2$funksiyaningqiymatlarto‘plamini toping.

A) $[1; 3]$ B)$(1; 3)$ C) $[1; 3)$ D) $\{1; 3\}$ E) $(1; 3]$

Yechilishi: $f(x) = \frac{|x-2|}{x-2} + 2$; $1) x - 2 \neq 0 \Rightarrow x \neq 2;$

$$2) x - 2 > 0 \Rightarrow f(x) = \frac{x-2}{x-2} + 2 = 3;$$

$$3)\ x - 2 < 0 \Rightarrow f(x) = \frac{-(x-2)}{x-2} + 2 = 1$$

$\{1; 3\}$. Javobi: D.

43. $[0; 4{,}2\pi]$kesmada$f(x) = |cosx|$ funksiya necha marta eng kichik qiymatga erishadi?

A) 3 B) 5 C) 4 D) 6 E) 7Yechilishi:
$[0; 4{,}2\pi]$ =$[0; 756°]$; $f(x) = |const|$



$x = \frac{\pi}{2}; \frac{3\pi}{2}; \frac{5\pi}{2}; \frac{7\pi}{2}$ 4ta. Javobi: C.

44. Qaysioraliqda$f(x) = \ln(4x - x^2)$ funksiya kamayadi?

A) (0; 2) B) $(-\infty; 0)$ C) (0; 4) D) $(2; \infty)$ E) [2; 4)

Yechilishi: $f(x) = \ln(4x - x^2)$; 1) $4x - x^2 > 0 \Rightarrow$ $x^2 - 4x < 0 \Rightarrow$

$$\Rightarrow x^2 - 4x = 0 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow x(x-4) = 0 \Rightarrow$$



$$\Rightarrow \begin{cases} x = 0; \\ x = 4. \end{cases}$$

2) $f'(x) = \frac{1}{4x-x^2} \cdot (4x - x^2)' = \frac{4-2x}{4x-x^2} \leq 0 \Rightarrow$



$$\Rightarrow \begin{cases} 4 - 2x = 0 \\ 4x - x^2 \neq 0 \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow x = 2; \qquad [2; 4).$$

Javobi: E.

45. To‘g‘ri chiziq bo‘ylab harakatlanayotgan moddiy nuqtaning tezligi $V(t) = 3t^2 - 2t + 2\,{}^{m}/_{s}$ tenglama bilan ifodalanadi. Harakat boshlangandan 3s o‘tkunga qadar bu nuqta qancha masofani (m) bosib o‘tadi?

A) 24 B) 26 C) 22 D) 20 E) 25

Yechilishi: $V(t) = 3t^2 - 2t + 2\,{}^{m}/_{s}$; $S' = v \Rightarrow$

$$\Rightarrow S = \int v dt = 3\int t^2 dt - 2\int t dt + 2\int dt =$$

$$= 3 \cdot \frac{t^3}{3} - 2 \cdot \frac{t^2}{2} + 2t = t^3 - t^2 + 2t;$$

$t = 3 \Rightarrow S = 3^3 - 3^2 + 2 \cdot 3 = 27 - 9 + 6 = 24.$

Javobi: A.

46. $y = -\frac{1}{2}x^2 + 2x$ funksiya grafigining qaysi nuqtasiga o‘tkazilgan urinma, $y = -2x$ tenglama bilan berilgan to‘g‘ri chiziqqa parallel bo‘ladi?

A) (-4; 0) B) (0; 4) C) (4; 0) D) (0; -4) E) (2: 4)

Yechilishi: $y = -\frac{1}{2}x^2 + 2x; \quad (x_0;\ y_0).$

$$y' = -\frac{1}{2} \cdot 2x + 2 = -x + 2 \Rightarrow y' = -x + 2;$$

$$k = y'(x_0) = -x_0 + 2 \Rightarrow k = -x_0 + 2 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow y = -2x \ dan, k = -2. \qquad U\ holda,$$

$$\Rightarrow -2 = -x_0 + 2 \Rightarrow x_0 = 4 \Rightarrow y_0 = -\frac{1}{2} \cdot 4^2 + 2 \cdot 4 =$$

$=-8 + 8=0 \Rightarrow (x_0;\ y_0) = (4; 0).$ Javobi: C.

47. $\log_2^2 x - 2\log_2 x^2 + 3 = 0$ tenglamaning ildizlari yig‘indisini toping.

A) 4 B) -4 C) -10 D) 10 E) 8

Yechilishi: $\log_2^2 x - 2\log_2 x^2 + 3 = 0 \Rightarrow$

$$\Rightarrow \log_2^2 x - 4\log_2 x + 3 = 0 \Rightarrow \log_2 x = y \Rightarrow$$

$$\Rightarrow y^2 - 4y + 3 = 0 \Rightarrow y_{1,2} = 2 \pm \sqrt{4 - 3} = 2 \pm 1 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} y_1 = 1 \\ y_2 = 3 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \log_2 x_1 = 1 \\ \log_2 x_2 = 3 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_1 = 2 \\ x_2 = 8 \end{cases} \Rightarrow$$

$\Rightarrow x_1 + x_2 = 10.$ Javobi: D.

48. $\sqrt{7+2\sqrt{10}} \cdot \sqrt{7-2\sqrt{10}}$ni hisoblang.

A) 2 B) 3,2 C) 3 D) 2,5 E) 1,5

Yechilishi: $\sqrt{7+\sqrt{40}} = \sqrt{\frac{7+\sqrt{49-40}}{2}} + \sqrt{\frac{7-\sqrt{49-40}}{2}} =$

$= \sqrt{\mathbf{5}} + \sqrt{\mathbf{2}}$; $\sqrt{\mathbf{7}+\sqrt{40}} \cdot \sqrt{\mathbf{7}-\sqrt{40}} == (\sqrt{5}+\sqrt{2})(\sqrt{5}-\sqrt{2}) = 3.$ Javobi: C.

49. Ikkita aylana shunday joylashtirilganki, ularning har biri ikkinchisining markazidan o‘tadi. Shu aylanalarga o‘tkazilgan umumiy vatar ularning markazlaridan qanday burchak ostida ko‘rinadi?

A) 170° B) 160° C) 145° D) 120° E) 90°

Yechilishi: $AO_1 = AO_2 = OO_1 = R$;

$\angle AO_1O_2 = 60°$; $\angle AO_1B = 120°$. Javobi. D.



50. $ABCD$trapetsiyaning kichik asosi 6 ga teng. Agar ABE uchburchakning $(BE \parallel CD)$ perimetri 36 ga teng bo‘lsa, trapetsiyaning perimetrini toping.

A) 45 B) 48 C) 42 D) 50 E) 52

Yechilishi: $BE = CD$; $P_{\Delta} = AB + AE + BE \Rightarrow$

$\Rightarrow AB + AE = 36 - BE;$

$\Rightarrow P_t = AB + AE +$

$+6 + 6 + CD =$

$=36 - BE + 12 + BE = 48.$



Javobi: B.

51. $ABCD$paralellogrammda $AC \perp CD$, $CE \perp AD$, $AE = 16$ va $ED = 4$. Paralellogrammning yuzini toping.

A) 150 B) 145 C) 155 D) 148 E) 160

Yechilishi:$h^2 = 4 \cdot 16 \Rightarrow$

$$\Rightarrow h = \sqrt{4 \cdot 16} = 8;$$

$\Rightarrow S = a \cdot h = 20 \cdot 8 = 160.$ Javobi:E.



52. Rombning tomoni 5 ga diagonallaridan biri 6 gateng. Rombning yuzini toping.

A) 24 B) 28 C) 30 D) 20 E) 22

Yechilishi: $S_{\Delta} = \frac{1}{2} \cdot 3 \cdot 4 = 6$

$S_{\Diamond} = 4 \cdot S_{\Delta} = 24.$



Javobi: A.

53. ABCuchburchakda$AB = AC, BM \perp AC,\ BM = 9$ va $MA = 12.\ \Delta ABC$ uchburchakning yuzini toping.

A) 63,5 B) 64,5 C) 65,5 D) 67,5 E) 66,5

Yechilishi: $AB = AC$;

$S_{\Delta} = \frac{1}{2} AC \cdot BM = \frac{1}{2} \cdot 15 \cdot 9 =$

$= \frac{135}{2} = 67{,}5.$



Javobi: D.

54. $\vec{a} = \{8; 6\}$vektor$\vec{b}$ va $\vec{c}$ vektorlarga yoyilgan. Agar $\vec{a} = \mu\vec{b} + \gamma\vec{c},\ \vec{c} = \{10; -3\}\ va\vec{b} = \{-2; 1\}\ b$o‘lsa, $\mu\gamma$ ning qiymatini toping.

A) 120 B) 115 C) 110 D) 100 E) 105

Yechilishi: $\vec{a} = \mu\vec{b} + \gamma\vec{c}$; $\{8; 6\} = \mu\{-2; 1\} + \gamma\{10; -3\}$;

$$\{8; 6\} = \{-2\mu; \mu\} + \{10\gamma; -3\gamma\} = \{-2\mu + 10\gamma; \mu - 3\gamma\} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} 10\gamma - 2\mu = 8 \\ \mu - 3\gamma = 6 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 10\gamma - 2(3\gamma + 6) = 8 \\ \mu = 3\gamma + 6 \end{cases} \Rightarrow$$

$$10\gamma - 6\gamma - 12 = 8 \Rightarrow 4\gamma = 20 \Rightarrow \gamma = 5 \Rightarrow$$

$\mu = 3 \cdot 5 + 6 = 21 \Rightarrow \mu \cdot \gamma = 105$. Javobi: E.

55. Agar $m > n > 0$ bo‘lib, $a = m^2 + n^2$; $b = m^2 - n^2$ va$c = 2mn$ uchburchak tomonlarining uzunliklari bo‘lsa, quyidagi tasdiqlardan qaysi biri to‘g‘ri?

A) *uchburchak o′tkir burchakli*

B) *uchburchak o′tmas burchakli*

C) *uchburchak to′g′ri burchakli*

D) *Asosidagi burchaklari* $45°$ *ga teng bo′lmagan teng yonli uchburchak*

E) *muntazam uchburchak*

Yechilishi: $a = m^2 + n^2$; $b = m^2 - n^2$; $c = 2mn$; $m > n > 0$.

$(m^2 + n^2)^2 =$

$=(m^2 - n^2)^2 +$



$+(2mn)^2 - 2(m^2 - n^2) \cdot (2mn) \cdot cos\alpha \Rightarrow cos\alpha = 0 \Rightarrow$
$\alpha = 90°$.Javobi: C.

56. Muntazam uchburchakli piramidaga konus ichki chizilgan. Agar piramidaning yon yoqlari bilan asosi 60° li burchak hosil qilib, piramidaning asosiga ichki chizilgan aylananing radiusi 16 ga teng bo‘lsa, konusning yon sirtini toping.

A) 524π B) 512π C) 536π D) 514π E) 518π

Yechilishi: $S_{yon} = \pi R l;\quad R = 16;$

$\frac{R}{l} = cos60° \Rightarrow \frac{16}{l} = \frac{1}{2} \Rightarrow l = 32;$

$S_{yon} = 16 \cdot 32\pi = 512\pi.$

Javobi: B.



57. Muntazam to‘rtburchakli prizmaga silindr ichki chizilgan. Silindr hajmining prizma hajmiga nisbatini toping.

A) $\frac{\pi}{3}$ B) $\frac{\pi}{5}$ C) $\frac{\pi}{4}$ D) $\frac{2\pi}{3}$ E) $\frac{3\pi}{4}$

Yechilishi: $V_p = a^3$

$V_s = S_{asos} \cdot H = \pi R^2 \cdot H =$

$\pi \cdot \left(\frac{a}{2}\right)^2 \cdot a = \frac{a^3\pi}{4}$

$\frac{V_s}{V_p} = \frac{a^3\pi}{4} : a^3 = \frac{\pi}{4}.$ Javobi: C.



58. Shardan tashqari M nuqtadan uning sirtiga MN urinma o‘tkazildi. M nuqtadan sharning sirtigacha bo‘lgan eng qisqa masofa 6 ga, sharning markazigacha bo‘lgan masofa 15 gateng. MN ning uzunligini toping.

A) 10 B) 16 C) 14 D) 12 E) 18

Yechilishi: $6 + R = 15 \Rightarrow R = 9$

$(MN)^2 = 15^2 - 9^2 =$

$= 144 \Rightarrow MN = 12.$

Javobi: D.



59. Kubning ostki asosining bir tomoni va ustki asosining unga qarama- qarshi tomoni orqali o‘tkazilgan tekislik uni ikkita uchburchakli prizmaga ajratadi. Shu prizmalardan birining hajmi 256 gateng.Kubning to‘la sirtini toping.

A) 364 B) 374 C) 372 D) 380 E) 384

Yechilishi: $V_p = 256$

$V_{kub} = 2V_p = 512$

$a^3 = 512 \Rightarrow a = 8$

$S_t = 6a^2 = 384.$

Javobi: E.



Pirnazar DAVRONOV

2000-YIL, 2-AXBOROTNOMA

1. $12{,}7 \cdot 64 + 173 \cdot 3{,}6 + 12{,}7 \cdot 36 + 17{,}3 \cdot 64$ ning qiymatini toping.
   A)3000 B)1800 C)2000 D)3600 E)2200

   Yechilishi: $12{,}7 \cdot 64 + 173 \cdot 3{,}6 + 12{,}7 \cdot 36 + 17{,}3 \cdot 64 =$
   $= 64 \cdot (12{,}7 + 17{,}3) + 17{,}3 \cdot 36 + 12{,}7 \cdot 36 =$
   $= 64 \cdot 30 + 36 \cdot (12{,}7 + 17{,}3) = 3000.$ Javobi: A.

2. $32 < a < 92$ shartni qanoatlantiruvchi ikki xonali a sonning birinchi raqami o‘chirilganda, u 31 martaga kamaydi. O‘chirilgan raqam nechaga teng?

   A)5 B) 4 C) 6 D) 7 E) 8

   Yechilishi: $32 < a < 92 \Rightarrow a = xy \Rightarrow xy = 10x + y \Rightarrow$
   $\Rightarrow 31y = 10x + y \Rightarrow 30y = 10x \Rightarrow \begin{cases} y = 1, 2, 3. \\ x = 3, 6, 9. \end{cases} \Rightarrow xy =$
   $= 62 \Rightarrow x = 6.$ Javobi: C.

3. $[\sqrt{1}] + [\sqrt{2}] + [\sqrt{3}] + \cdots + [10]$ ni hisoblang. Bunda $[a] - a$ sonning butun qismi.

   A)15 B) 19 C)18 D)17 E) 21.

   Yechilishi: $[\sqrt{1}] + [\sqrt{2}] + [\sqrt{3}] + \cdots + [10] =$
   $= 1 + 1 + 1 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 3 + 3 = 19.$ Javobi: B.

4. $\frac{1}{15} + \frac{1}{35} + \frac{1}{63} + \frac{1}{99} + \frac{1}{143} + \frac{1}{195}$ ni hisoblang.

   A) $\frac{4}{15}$ B)$\frac{7}{15}$ C)$\frac{17}{45}$ D)$\frac{11}{15}$ E)$\frac{2}{15}$

Yechilishi: $\frac{1}{15}+\frac{1}{35}+\frac{1}{63}+\frac{1}{99}+\frac{1}{143}+\frac{1}{195}=$

$=\frac{1}{2}\left(\frac{1}{3}-\frac{1}{5}\right)+\frac{1}{2}\left(\frac{1}{5}-\frac{1}{7}\right)+\frac{1}{2}\left(\frac{1}{7}-\frac{1}{9}\right)+\frac{1}{2}\left(\frac{1}{9}-\frac{1}{11}\right)+$

$+\frac{1}{2}\left(\frac{1}{11}-\frac{1}{13}\right)+\frac{1}{2}\left(\frac{1}{13}-\frac{1}{15}\right)=\frac{1}{2}\left(\frac{1}{3}-\frac{1}{5}+\frac{1}{5}-\frac{1}{7}+\frac{1}{7}-\frac{1}{9}+\right.$

$\left.+\frac{1}{9}-\frac{1}{11}+\frac{1}{11}-\frac{1}{13}+\frac{1}{13}-\frac{1}{15}\right)=\frac{1}{2}\left(\frac{1}{3}-\frac{1}{15}\right)=\frac{1}{2}\cdot\frac{4}{15}=\frac{2}{15}.$

Javobi: E.

5. Natural sonlar qatori har biri natural sonning kvadrati bilan tugaydigan quyidagicha qismlarga ajratilgan. $1,(2,3,4),(5,6,7,8,9),(10,11,12,13,14,15,16),\ldots$

10- qismdagi sonlar yig‘indisini toping.

A)1758 B)1800 C)1626 D)1729 E)1913.

Yeshilishi: $1,(2,3,4),(5,6,7,8,9),(10,11,12,13,14,15,16),\ldots$

1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10

1, 4, 9, 16, 25, 36, 49, 64, 81, 100

Bulardan quydagilarga kelamiz.

$$(82,83,\ldots,100)\Rightarrow a_n=a_1+d(n-1)\Rightarrow$$

$$\Rightarrow 100=82+1(n-1)\Rightarrow n=19\Rightarrow$$

$\Rightarrow S_{19}=\frac{82+100}{2}\cdot 19=1729.$ Javobi: D.

6. $\frac{11}{25}$ va $4\frac{6}{11}$ sonlariga teskari sonlar ko‘paytmasi nechaga teng?

A)$\frac{1}{2}$ B)1 C)$\frac{3}{4}$ D)2 E)$\frac{1}{3}$

Yechilishi: $\begin{cases}\frac{11}{25}\Rightarrow\frac{25}{11}\\ 4\frac{6}{11}=\frac{50}{11}\Rightarrow\frac{11}{50}\end{cases}\Rightarrow\frac{25}{11}\cdot\frac{11}{50}=\frac{1}{2}.$ Javobi: A.

7. $4a^2+9b^2+16c^2-4a-6b-8c+3=0$ bo‘lsa, abc ko‘paytmaga teskari sonni toping.

A)$\frac{1}{24}$ B)12 C)48 D)24 E)$\frac{1}{12}$.

Yeshilishi: $4a^2+9b^2+16c^2-4a-6b-8c+3=0 \Rightarrow$

$$\Rightarrow 4a^2-4a+1+9b^2-6b+1+16c^2-8c+1=0 \Rightarrow$$
$$\Rightarrow (2a-1)^2+(3b-1)^2+(4c-1)^2=0$$
$$\Rightarrow$$
$$\Rightarrow \begin{cases} a=\frac{1}{2} \\ b=\frac{1}{3} \\ c=\frac{1}{4} \end{cases} \Rightarrow a\cdot b\cdot c=\frac{1}{2}\cdot\frac{1}{3}\cdot\frac{1}{4}=\frac{1}{24} \Rightarrow 24.$$

Javobi: D.

8. Agar $f(x)=x^2-8x+7$ bo‘lsa, $f(4-\sqrt{11})$ ni hisoblang.

A)2 B)$2-\sqrt{2}$ C)$2+\sqrt{11}$ D)3 E)$5-\sqrt{11}$

Yechilishi: $f(x)=x^2-8x+7=(x-1)(x-7)$.

$$f\left(4-\sqrt{11}\right)=\left(4-\sqrt{11}-1\right)\left(4-\sqrt{11}-7\right)=$$
$$=\left(3-\sqrt{11}\right)\left(-3-\sqrt{11}\right)=-\left(3-\sqrt{11}\right)\left(3+\sqrt{11}\right)=$$
$$=-(3^2-\left(\sqrt{11}\right)^2)=-(9-11)=2.$$ Javobi: A.

9. $1\cdot 2\cdot 3\cdot \ldots \cdot 50$ ko‘paytma nechta nol bilan tugaydi?

A)8 B)10 C)9 D)14 E)12

Yechilishi:$\left[\frac{50}{5}\right]+\left[\frac{50}{5^2}\right]=10+2=12.$ Javobi:12.

10. 3 ga bo‘linmaydigan natural sonning kubini 9 ga bo‘lganda, qoldiq qanday sonlar bo‘lishi mumkin?

A)1yoki 8 B)0yoki 1 C)0yoki 8 D)3yoki 6 E)0,1, 8

Yechilishi:3 $ga\ bo'linmaydigan\ sonlar\ a = 3k - 2\ va$ $b = 3k - 1\ (k\epsilon N)\ ko'rinishidayozib\ olinadi. Bularni$ $a = 3(k-1) + 1\ va\ b = 3(k-1) + 2\ ko'rinishida$ $yozib, ularni\ kubga\ ko'taramiz$:

$a^3 = 9k + 1,\ b^3 = 9k + 8\ bo'ladi.$ Javobi: A.

11. 25 ta ketma-ket natural sonning yig‘indisi 1000 ga teng. Bu sonlarning kichigi nechaga teng bo‘ladi?

A)30 B)28 C)26 D)27 E)32

Yechilishi: $x_1, x_2, \dots, x_{25}; S_{25} = 1000.$

$$1000 = \frac{x_1 + x_{25}}{2} \cdot 25 \Rightarrow x_1 + x_{25} = 80 \Rightarrow$$

$\Rightarrow x_1 + x_1 + 24d = 80 \Rightarrow 2x_1 = 80 - 24 \Rightarrow 2x_1 = 56 \Rightarrow$ $\Rightarrow x_1 = 28.$ Javobi: B.

12. 100 soni shunday ikki musbat songa ajratilganki, ulardan biri 7 ga, ikkinchisi 11 ga bo‘linadi. Bu sonlar ayirmasining moduli nimaga teng?

A) 8 B) 14 C) 10 D) 12 E) 16.

Yechilishi: $7x + 11y = 100 \Rightarrow \begin{cases} x = 8 \\ y = 4 \end{cases} \Rightarrow |56 - 44| = 12.$

Javobi: D.

13. Agar $a^2 + 6a + 9 = 0 \quad bo'lsa, \quad a^3 + 3a^2 - 9a - 27$ ning qiymatini toping.

A) 0 B) 3 C) 1 D) 4 E) -1.

Yechilishi: $a^2 + 6a + 9 = 0 \Rightarrow (a+3)^2 = 0 \Rightarrow a = -3.$

$a^3+3a^2-9a-27=(-3)^3+3(-3)^2-9\cdot(-3)-27=$
$=-27+27+27-27=0.$ Javobi: A.

14. Ikkita toq sonning yig‘indisi 5 ga bo‘linadi. Bu sonlar kublarining yig‘indisi qanday raqam bilan tugaydi?

A)6 B) 5 C) 4 D) 0 E) 8.

Yechilishi: $Yig'indisi\ 5\ ga\ bo'linadigan\ ikkita\ toq\ son$ $2n+1\ va\ 8n-1\ ko'rinishida\ yozib\ olinadi.Bu\ sonlar$ $kublarining\ yig'indisining\ oxirgi\ raqami\ 0\ bo'ladi.$

$Masalan: 1+9=10\Rightarrow 1+729=730;$

$3+7=10\Rightarrow 27+343=370.$ Javobi: D.

15. $\frac{\sqrt{x+5}}{1-x}<1$ tengsizlikning eng kichik butun musbat yechimini toping.

A) 6 B) 3 C) 5 D) 4 E) 2.

Yechilishi: 1)$\frac{\sqrt{x+5}}{1-x}<1\Rightarrow\begin{cases}x+5\geq 0\\1-x\neq 0\end{cases}\begin{cases}x\geq -5;\\x\neq 1.\end{cases}$

$$2)\ \frac{\sqrt{x+5}}{1-x}-1<0\Rightarrow\frac{\sqrt{x+5}-1+x}{1-x}<0.$$

$$\sqrt{x+5}=1-x\Rightarrow|x+5|=(1-x)^2\Rightarrow$$

$$\begin{cases}-x-5=1-2x+x^2\\x+5=1-2x+x^2\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}x^2-x+6=0\\x^2-3x-4=0\end{cases}\Rightarrow$$

$$\Rightarrow\begin{cases}D<0;\\x_1=-1;\ x_2=4.\end{cases}$$

$U\ holda$



Javobi: $x=2.$ E.

16. $\frac{2kx+3}{3} = \frac{k-2+x}{2}$ tenglama k ning qanday qiymatlarida yechimga ega emas?

A)$\frac{3}{4}$ B)$\frac{2}{5}$ C)$\frac{1}{4}$ D)1 E)$\frac{3}{5}$

Yechilishi: $\frac{2kx+3}{3} = \frac{k-2+x}{2} \Rightarrow 4xk + 6 = 3k - 6 + 3x \Rightarrow$
$\Rightarrow 4kx - 3x = 3k - 12 \Rightarrow x(4k - 3) = 3k - 12 \Rightarrow$
$\Rightarrow x = \frac{3k-12}{4k-3} \Rightarrow 4k - 3 = 0 \Rightarrow k = \frac{3}{4}$. Javobi: A.

17. Agar bo‘luvchi $x - 2$ ga, bo‘linma $x + 3$ ga, qoldiq 5 ga teng bo‘lsa, bo‘linuvchi nimaga teng?

A)$x^2 - 3x - 6$ B)$x^2 - 5x - 6$

C)$x^2 + x - 1$ D)$x^2 - 5$ E)$x^2 - 6$

Yechilishi: $n = (x - 2)(x + 3) + 5 = x^2 - 3x - 6 + 5 =$
$= x^2 + x - 1$. Javobi: C.

18. x ning qanday qiymatida $P(x) = x^3 + 4x^2 - 12x + 17$ ko‘phadning qiymatini biror sonning kvadrati shaklida tasvirlash mumkin?

A) -2 B) 2 C) 1 D) 3 E) -3

Yechilishi:$P(x) = x^3 + 4x^2 - 12x + 17$; $Bu\ uchinchi\ darajali\ ko'phad\ bo'lgani\ uchun\ P(x)\ ni\ biror\ ko'phadning\ kvadrati\ ko'rinishida\ ifodalab\ bo'lmaydi. Shuning\ uchun\ javoblardan\ foydalani-ladi.$ $x = -2 \Rightarrow P(-2) = (-2)^3 + 4 \cdot (-2)^2 -$
$-12 \cdot (-2) + 17 = 49. Bu\ son\ 7\ ning\ kvadrati.$

Javobi: A.

19. $\sqrt{(2x-1)^2(3-x)} = (2x-1)\sqrt{3-x}$ tenglik x ning qanday qiymatlarida to‘g‘ri bo‘ladi?

A)$[0{,}5; 3]$ B)$[0; 3]$ C)$[1; 3]$

D)$(-\infty; 0{,}5]$ E)$(-\infty; 0{,}3]$

Yechilishi: $\sqrt{(2x-1)^2(3-x)} = (2x-1)\sqrt{3-x}$

$$|2x-1|\sqrt{3-x} = (2x-1)\sqrt{3-x}$$

1)$3-x \geq 0 \Rightarrow x \leq 3$; 2)$|2x-1| = 2x-1 \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} 2x-1 = 2x-1 - ayniyat; \\ -2x+1 = 2x-1 \Rightarrow x = \frac{1}{2}. \end{cases}$ 1) va 2) lardan

$\frac{1}{2} \leq x \leq 3$. Javobi: A.

20. $\sqrt{a^{\frac{2}{3}} - 2a^{-\frac{1}{3}} + a^{-\frac{4}{3}}} \div a^{-\frac{2}{3}}$ ni soddalashtiring. $(a \geq 1)$

A) $a-2$ B) a^2-1 C) $a-1$

D)$\sqrt{a-1}$ E)$\sqrt{a^2-1}$

Yechilishi: $\sqrt{a^{\frac{2}{3}} - 2a^{-\frac{1}{3}} + a^{-\frac{4}{3}}} : a^{-\frac{2}{3}} =$

$$= \sqrt{\left(a^{\frac{1}{3}}\right)^2 - 2a^{-\frac{1}{3}} + \left(a^{-\frac{2}{3}}\right)^2} \cdot a^{\frac{2}{3}} = \sqrt{(a^{\frac{1}{3}} - a^{-\frac{2}{3}})^2} \cdot a^{\frac{2}{3}}$$

$$= \left(a^{\frac{1}{3}} - a^{-\frac{2}{3}}\right) \cdot a^{\frac{2}{3}} = a^{\frac{1}{3}+\frac{2}{3}} - 1 = a - 1.$$ Javobi: C.

21. Nechanchi haddan boshlab, $-8;\ 4;\ -2;$ ... geometrik Progressiyaning hadlarining absalyut qiymati 0,001 dan kichik bo‘ladi?

A)16 B)12 C)15 D)14 E)13

Yechilishi: $-8; 4; -2; \ldots \Rightarrow q = \frac{4}{-8} = -\frac{1}{2};$

$-8, 4, -2, 1, -\frac{1}{2}, \frac{1}{4}, -\frac{1}{8}, \frac{1}{16}, -\frac{1}{32}, \frac{1}{64},$

$-\frac{1}{128}, \frac{1}{256}, -\frac{1}{512}, \frac{1}{1024}.$

$$1) -\frac{1}{512} = -0{,}0019 \Rightarrow |-0{,}0019| > 0.001$$

2) $\frac{1}{1024} = 0{,}009 < 0{,}001 \Rightarrow 14.$ Javobi: D.

22. Agar $\begin{cases} 3^x \cdot 2^y = 972 \\ \log_{\sqrt{3}}(x-y) = 2 \end{cases}$ bo‘lsa, xy ning qiymatini toping.

A)14 B)12 C)10 D)8 E)-8

Yechilishi: $\begin{cases} 3^x \cdot 2^y = 972 \\ \log_{\sqrt{3}}(x-y) = 2 \end{cases} \Rightarrow 972 \ tub$

$ko'paytuvchilarga\ ajratilib, 972 = 3^5 \cdot 2^2\ topiladi.$

$U\ holda\ 3^x \cdot 2^y = 3^5 \cdot 2^2 \Rightarrow \begin{cases} x = 5 \\ y = 2 \end{cases} \Rightarrow x \cdot y = 10$

Tekshirish: $\log_{3^{\frac{1}{2}}}(5-2) = 2 \Rightarrow 2\log_3 3 = 2 \Rightarrow 2 = 2.$

Javobi: C.

23. $\frac{1}{\sqrt{1}+\sqrt{3}} + \frac{1}{\sqrt{3}+\sqrt{5}} + \frac{1}{\sqrt{5}+\sqrt{7}} + \cdots + \frac{1}{\sqrt{79}+\sqrt{81}}$ yig‘indisini hisoblang.

A) 6 B) 5 C) 3 D) 2 E) 4

Yechilishi: $\frac{1}{\sqrt{1}+\sqrt{3}} + \frac{1}{\sqrt{3}+\sqrt{5}} + \frac{1}{\sqrt{5}+\sqrt{7}} + \cdots + \frac{1}{\sqrt{79}+\sqrt{81}} =$

$$= \frac{\sqrt{1}-\sqrt{3}}{(\sqrt{1}+\sqrt{3})(\sqrt{1}-\sqrt{3})} + \frac{\sqrt{3}-\sqrt{5}}{3-5} + \frac{\sqrt{5}-\sqrt{7}}{5-7} +$$

$$+\ldots+\frac{\sqrt{79}-\sqrt{81}}{79-81} = \frac{\sqrt{1}-\sqrt{3}}{-2} + \frac{\sqrt{3}-\sqrt{5}}{-2} + \frac{\sqrt{5}-\sqrt{7}}{-2} + \cdots + \frac{\sqrt{79}-\sqrt{81}}{-2} =$$

